
YORDAMGA MUXTOJ OILAGA KO'MAK BERILMOQDA

Ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilingan "Inson qadri qancha turadi? Rishton tumani hokimligi masalaga e'tibor qaratarmikan? nomli videomurojaat yuzasidan Rishton tumani hokimligi quyidagilarni ma'lum qiladi.

Bundan bir necha kun oldin Rishton tumani hokimligiga murojaat qilgan fuqaro nabirasi "O'yrat" MFY da yashovchi 2007 yilda tug'ilgan Muhammadjonov Elyorjon Dilmurodjon ug'li tomoq saratoni tashhisi bilan davolanayotgani va uning oilasida moliyaviy muammolarga duch kelganligi borasida aytib o'tgandi.

Ushbu murojaat yuzasidan tuman hokimi o'rinbosari Zarifjon Umarov amaliy ishlarni boshlab yubordi. Xususan, "Murojaat Rishton" telegram guruhi orqali "Hindiston davlatida davolanayotgan yurtdoshimizga operatsiyasi uchun mablag' yig'ishimizda yordam qo'lini cho'zing!" aksiyasi boshlab yuborildi. Bundan tashqari, imkon qadar yordam homiylik yordamlari berilmoqda. U masala shaxsan tuman hokimining nazoratida.

2024-02-21 16:16:05